



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

JADID DAVRI YOZMA MANBALARIDA QO‘LLANGAN PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Farmonova Umida Maxsutaliyevna
Farg‘ona davlat universiteti, o‘qituvchi PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadidlar davri o‘zbek adabiy tilining ijtimoiy-ma’rifiy funksiyasi hamda paremiologik birliklarning pragmatik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Jadidchilik harakati namoyandasi Abdulla Avloniy asarlari misolida maqol, matal, hikmatli so‘z va aforizmlarning g‘oyaviy-mazmuniy yukni kuchaytirishdagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqotda paremiologik birliklarning yozma adabiy an‘ana va xalq og‘zaki ijodi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlashdagi roli ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, paremiologik birlik, maqol, aforizm, pragmatika, somatik frazeologizm, ijtimoiy-ma’rifiy diskurs, Abdulla Avloniy.

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ ПЕРИОДА ДЖАДИДИЗМА

Фармонова Умида Максуталиевна
Ферганский государственный университет, преподаватель PhD

Аннотация

В статье анализируется социально-просветительская функция узбекского литературного языка периода джадидизма и прагматический потенциал паремиологических единиц. На материале произведений представителя джадидского движения Abdulla Avloniy раскрывается роль пословиц, поговорок, афоризмов и крылатых выражений в усилении идейно-содержательной структуры текста. Показана связь письменной литературной традиции с устным народным творчеством через использование паремий.

Ключевые слова: джадидизм, паремиологическая единица, пословица, афоризм, прагматика, соматический фразеологизм, социально-просветительский дискурс, Абдулла Авлоний.

PRAGMATIC FEATURES OF PAREMIOLOGICAL UNITS USED IN WRITTEN SOURCES OF THE JADID PERIOD

Farmonova Umida Maxsutaliyevna
Fergana State University , Lecturer PhD

Abstract

This article examines the socio-educational function of the Uzbek literary language during the Jadid period and the pragmatic potential of paremiological units. Based on the works of Abdulla Avloniy, a prominent representative of the Jadid movement, the study highlights the role of proverbs, sayings, aphorisms, and folk expressions in strengthening the ideological and semantic structure of texts. The research demonstrates how paremiological units ensure continuity between written literary tradition and oral folklore.

Keywords: jadidism, paremiological unit, proverb, aphorism, pragmatics, somatic phraseology, socio-educational discourse, Abdulla Avloniy.

Jadidlar davri o'zbek adabiy tili va madaniy tafakkurining tubdan o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan davr bo'lib, bu jarayonda yozma matnlarda til vositalarining ijtimoiy-ma'rifiy vazifasi keskin ortdi. Jadid mualliflari tilni faqat estetik ifoda vositasi emas, balki milliy ongni uyg'otish, islohotlarni targ'ib qilish va xalqni zamonaviy bilimlarga yo'naltirish quroli sifatida ishlatdilar. Shu munosabat bilan jadid matnlarida qo'llangan paremiologik birliklar (maqol, matal, hikmatli so'z, aforizm) o'zining barqarorlik, umumlashtiruvchanlik va xalqona obrazlilik xususiyatlari bilan nutqning pragmatik yukini kuchaytiruvchi muhim vositaga aylandi.

Abdulla Avloniy – jadidchilik davrining yetuk namoyandasi, vatanparvar va ma'rifatparvar ijodkor sifatida o'z asarlarida maqol va matallardek paremiologik birliklardan keng hamda maqsadli foydalangan adibdir. Yozuvchining badiiy hamda publitsistik matnlarida maqol, matal, hikmatli so'z va xalqona iboralar nafaqat uslubiy bezak vazifasini bajaradi, balki g'oyaviy-mazmuniy yukni kuchaytiruvchi muhim semantik vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Paremiologik birliklarni qo'llash orqali muallif xalq og'zaki ijodi bilan yozma adabiy an'ana o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi, ijtimoiy-ma'rifiy g'oyalarni xalq tafakkuriga yaqin shaklda ifodalashga erishadi. Ayniqsa, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, ilm-ma'rifatga da'vat kabi mavzularni yoritishda paremiologik vositalar didaktik ta'sir kuchini oshiradi hamda matnning pragmatik samaradorligini ta'minlaydi.

Abdulla Avloniy asarlarida inson tana a'zolari nomlariga asoslangan iboralar – somatik frazeologizmlar muhim o'rin egallaydi. Bunday birliklar muallif matnida nafaqat obrazlilikni kuchaytirish, balki ijtimoiy-ma'rifiy g'oyalarni xalqona, tushunarli tarzda yetkazish vazifasini ham bajaradi.

Masalan, *Bizning xalqlarning ham ko'zlari ochilub, dunyodan xabardor bo'lg'onlardur deb o'ylar edim* [A.Avloniy. "Advokatlik osonmi?", 130] gapida ishlatilgan "ko'zi ochiq" iborasi to'g'ridan-to'g'ri ko'rish qobiliyatini emas, balki ko'chma ma'noda "yaxshini yomondan, foydani zarardan ajrata oladigan, ongli va idrokli shaxs" ma'nosini anglatadi [O'TFL, 261]. Shu nuqtayi nazardan, ushbu ibora semantik jihatdan ma'naviy uyg'oqlik va ijtimoiy ong belgisi sifatida talqin etiladi.

Pragmatik jihatdan, mazkur frazeologizm muallifning kommunikativ maqsadini – jamiyatni ma'rifatga, dunyoqarashni kengaytirishga undashni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Ibora vositasida o'quvchi ongida ijobiy baho uyg'onib, "ko'zi ochiq" inson timsoli namunali ideal sifatida gavdalanadi. Natijada, bu ifoda matnning ta'sirchanligini oshirib, tarbiyaviy-amaliy vazifani bajaradi.

Paremiyaning asosiy tashqi xususiyatlaridan biri – ixchamlik, sig'imlilik va tarkibiy-kompozitsion tugallikdir. Avvalo, bu maqolning o'ziga xos jihati bo'lib, u insonning turli xil fikr va his-tuyg'ularini qisqa va mukammal tarzda ifodalay oladi. Maqol mazmun jihatidan keng qamrovli folklor yoki badiiy asardan qolishmaydi, chunki u qisqa bo'lsa-da, asarning asosiy mazmunini lo'nda va ta'sirchan tarzda yetkazadi.

Abdulla Avloniy o'z asarlarida xalq og'zaki ijodining muhim unsurlaridan biri bo'lgan maqollardan keng foydalanib, o'quvchining ma'naviy ongini shakllantirish va kengaytirishga intilgan. Yozuvchi maqollarni matnga kiritish orqali fikrning ta'sirchanligini oshiradi hamda ijtimoiy-axloqiy xulosalarni xalqona donishmandlik asosida ifodalaydi: *Birni ko'rub fikr qil, birni ko'rub shukr qil demishlar. To'g'ri so'zdur. Man musulmonlarning hol-ahvollarin ko'rub xafa bo'lsam, juhudlarning orasida ham shunaqa ezma kishilar bor ekan* [A.Avloniy. "Advokatlik osonmi?", 138].

“Advokatlik osonmi?” asaridan olingan yuqoridagi parchada *“Birni ko‘rib fikr qil, birni ko‘rib shukr qil”* maqolining ishlatilishi muallif nutqida qiyoslashga asoslangan tafakkurni kuchaytiradi. Bu maqol pragmatik jihatdan o‘quvchini hayotiy hodisalarga bir tomonlama emas, balki qiyosiy baho berishga undaydi: bir holatni ko‘rib mulohaza yuritish (“fikir”), boshqasini ko‘rib qanoat va minnatdorlik tuyg‘usini shakllantirish (“shukr”). Binobarin, maqol matnda hissiy muvozanatni tiklash va dunyoqarashni kengaytirish vositasi vazifasini bajaradi.

Keltirilgan kontekstda muallif turli ijtimoiy guruhlar misolida insoniy kamchiliklarning umumiylikni ko‘rsatib, subyektiv xafagarchilikni kamaytirish va o‘quvchini sabrli bo‘lishga hamda chuqur mulohaza yuritishga undashga erishadi. Natijada maqol matnning ta’limiy-amaliy ahamiyatini oshirib, o‘quvchi ongida axloqiy xulosa shakllanishiga xizmat qiladi.

Aforizm nafaqat shaklan ixcham, balki mazmunan chuqur va mantiqan tugal bo‘lishi bilan ajralib turadi. U shaxsiy kuzatuv, hayotiy tajriba yoki falsafiy mushohada natijasida yuzaga kelib, ko‘pincha kutilmagan xulosalar, o‘tkir mulohazalar hamda mantiqan zid, ammo mazmunan teran fikrlarni o‘zida mujassam etadi. Aforizmlar insoniyatning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, donoligi va tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Ularda xalqning fikrlash tarzi, dunyoqarashi, milliy o‘ziga xosligi hamda madaniy qadriyatlari yaqqol aks etadi.

Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq, axloqimizni go‘zallantirmoq, zehnimizni ravshanlantirmoq lozim ekan. Tarbiyani kim qiladi? Qayerda qiladi? – degan savol keladi. Bu savolga: Birinchi – uy tarbiyasi, bu ona vazifasi. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir....

Xulosa shuki, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir [A.Avloniy].

Keltirilgan matn aforistik xususiyatga ega bo‘lib, unda didaktik-falsafiy mazmun, mantiqiy xulosa va yuksak ta’sirchanlik uyg‘unlashgan. Mazkur fikrlar Abdulla Avloniyning ma’rifatparvarlik ruhidagi pedagogik qarashlarini aks ettiradi.

Aforizmning asosiy belgisi mazmuniy zichlik va ixchamlikdir. “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot...” tarzidagi xulosa qisqa shaklda berilgan bo‘lsa-da, unda tarbiyaning shaxs va jamiyat hayotidagi hal qiluvchi ahamiyati umumlashtirilgan. Matnda antitezali juftliklar (“hayot – mamot”, “najot – halokat”, “saodat – falokat”) qo‘llanilishi fikrning dramatik ta’sirini kuchaytiradi va semantik teranlikni ta’minlaydi.

Ritorik savol-javob shakli nutqqa dialogik xususiyat baxsh etib, mantiqiy izchillikni mustahkamlaydi. Gradatsion sanash (“vujudni quvvatlantirmoq, fikrni nurlantirib yoritmoq...” kabi) esa tarbiyaning murakkab mohiyatini ochib beradi. Pragmatik jihatdan matn ogohlantirish va da’vat mazmuniga ega bo‘lib, tarbiyani millat taqdiri bilan bog‘liq strategik masala darajasiga ko‘taradi. Shu bois, ushbu parcha semantik teranlik, mantiqiy tugal xulosa, obrazlilik va didaktik yo‘naltirilganlik kabi aforizmga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan ixcham falsafiy ifoda sifatida baholanadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, jadidlar davrida o‘zbek adabiy tilining ijtimoiy-ma’rifiy vazifasi sezilarli darajada kuchaydi. Abdulla Avloniyning asarlarida paremiologik birliklar va somatik frazeologizmlar g‘oyaviy mazmunni kuchaytirish, milliy ongni uyg‘otish hamda axloqiy-ma’rifiy qarashlarni xalqona va ta’sirchan tarzda ifodalashga xizmat qilgan. Shu jihatdan, jadid matnlari tilning nafaqat estetik, balki kuchli pragmatik va tarbiyaviy vosita ekanligini yaqqol namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn]: lug‘at / – Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 635 b.
2. Jadidlar. Abdulla Avloniy [Matn]: risola. / Olim Oltinbek. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.